

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA “OY” KONSEPTINING RAMZIY VA RUHIY SHAKLLANISHI

*Sharipova Bahora Odiljonovna, Navoiy davlat universiteti Tillar
fakulteti “Ingliz tili, amaliy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi*

SYMBOLIC AND SPIRITUAL FORMATION OF THE CONCEPT OF “MOON” IN FOLK ORIGIN

*Sharipova Bahora Odiljonovna, Navoi State University, Faculty of
Philology, Department of Practical English, Lecturer*

СИМВОЛИЧЕСКОЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПТА “ЛУНА” В УЗБЕКСКОМ НАРОДНОМ ФОЛЬКЛОРЕ

*Шарипова Бахора Одилжоновна, преподаватель кафедры
практического английского языка филологического
факультета Навоийского государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0002-4358-0706>
e-mail: bahora@nspi.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodida o‘yning ramziy va ruhiy talqinlari tahlil qilinadi. Oy qadim zamonlardan buyon insoniyat ongida sirli va ilohiy kuch sifatida e’tirof etilib, ayollik, go‘zallik, poklik, muhabbat va ruhiy o‘zgarishlarning timsoli sifatida qaralgan. Xalq go‘shiqdari, ertaklari, rivoyatlarida o‘yning estetik hamda ma’naviy ma’nosi turli badiiy shakllarda ifodalangan. Maqola davomida Jungning arxetiplar nazariyasi, Eliade’ning mifologik qarashlari hamda xalq estetik tafakkuri asosida oy konseptining xalq ongida shakllanish jarayoni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: oy, xalq og‘zaki ijodi, arxetip, mifologiya, ayollik, ramz, K.Jung.

Abstract: This article analyzes the symbolic and psychological interpretations of the moon in Uzbek oral folklore. Since ancient times, the moon has been perceived as a mysterious and divine force, symbolizing femininity, purity, love, and spiritual transformation. In Uzbek songs, legends the moon appears as a metaphor for beauty and emotional depth. The study draws on Jung’s theory of archetypes and Eliade’s mythological interpretations to explore how the moon’s image has evolved in the collective consciousness and artistic expression of the Uzbek people.

Keywords: moon, folklore, archetype, mythology, femininity, symbolism, Jung.

Аннотация: В данной статье рассматриваются символические и психологические интерпретации образа луны в узбекском народном фольклоре. С древних времён луна воспринималась как таинственная и божественная сила, олицетворяющая женственность, чистоту, любовь и духовное обновление. В узбекских песнях, сказках, легендах луна выступает как символ красоты, внутреннего мира и эмоциональной глубины. В статье анализируется формирование концепта луны в народном сознании на основе архетипической теории Юнга и мифологических взглядов Элиаде.

Ключевые слова: луна, фольклор, архетип, мифология, женственность, символ, Юнг.

KIRISH. Oy qadim davrlardan beri insoniyat ongida sirli va sehrlı osmon jismlaridan biri sifatida ko‘rilgan. Uning doimiy o‘zgaruvchan fazalari, tunda nur sochishi, suv va hayot bilan bog‘liqligi, ayollik ramzi bo‘lishi sababli har doim

e’tiborni tortgan. Bu holat inson ruhiyati, hayot falsafasi va madaniy tasavvurlarda o‘yning ramziy va ruhiy obrazi sifatida shakllanishiga olib kelgan. Xususan, xalq og‘zaki ijodida o‘yning timsoli estetik va ma’naviy merosda chuqur aks etgan.

Badiiy obraz sifatida u insonning ichki ruhiy kechinmalari, orzu-umidlari, muhabbat, g'am, yolg'izlik, go'zallik va hatto turli xalqlarda, ezgulik, yovuzlik kabi tushunchalarni ifodalashda muhim vosita bo'lgan¹. O'zbek xalqining lirik janrlarida qo'shiqlar, laparlar, termalar, ertak va rivoyatlar, maqol va topishmoqlarda oy obraziga berilgan ramziy yuk har doim kuchli bo'lgan².

Oy ba'zan xalq o'g'zaki ijodida sevgining timsoli, ba'zan iztirob va ayriliq belgisi sifatida namoyon bo'lgan. Oyning inson ruhiyatidagi metaforik nurlanishi Shvetsariyalik faylasuf, Jungning arxetiplar nazariyasiga mos keladi. Unga ko'ra oy onalik, ichki intuitsiya, ruhiy o'zgarishlar va ruhiy to'lish timsolidir³. Ushbu maqola xalq o'g'zaki ijodida oy konseptining shakllanish jarayonini, unga yuklangan ramziy va ruhiy ma'nolarni, bu obrazning badiiy ifoda shakllari tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda oy konsepti xalq ongidagi arxaik qarashlar, mifologik asoslar va estetik ifoda vositalari nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Maqolaning asosiy maqsadi oyning xalq ijodidagi badiiy obrazini madaniy va ruhiy kontekstda ochib berishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Oyning xalq ongidagi arxetipik manbalari. Oy qadim zamonlardan insoniyat tafakkurida ilohiy va sirli kuch sifatida idrok etilgan. Uning kechasi yorituvchi tabiatga ega bo'lishi, turli fazalarda ko'rinishi, suv sathiga ta'siri nafaqat tabiat hodisasi, balki ramziy va ruhiy ma'noda ham o'zgacha anglangan. Deyarli barcha qadimiy madaniyatlarda oyga sig'inish, unga sajda qilish, uni ilohiy kuch deb e'tirof etish holatlari bo'lgan⁴. Sharq xalqlari, jumladan qadimgi turkiylar, zardushtiylar, hindlar va xitoylar oyga ko'p hollarda ilohiy mavjudot sifatida qarashgan. Oyni tabiatdagi energiyaning, ko'rinmas kuchlarning timsoli deb bilishgan. O'zbek xalq o'g'zaki ijodida ham oy ko'pincha ilohiy nurlanish, yolg'izlik, orzu va sokinlik timsoli sifatida tilga olinadi.

¹ Turaqulov, A. (2018). *Xalq og'zaki ijodi va ramzlar olami*. Toshkent: Fan nashriyoti.

² Saidov, A. (2004). *O'zbek xalq og'zaki ijodi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

³ Jung, C. G. (1964). *Man and His Symbols*. London: Aldus Books.

Oyning doimiy o'zgaruvchanligi yangi oy, yarim oy, to'lin oy va so'nish bosqichlari qadimdan inson hayoti va taqdirining o'zgaruvchanligi bilan qiyoslangan. Oy tug'ilishdan yo'q bo'lishigacha bo'lgan bosqichlari bilan inson umrining metaforasi sifatida tushunilgan. Karl Gustav Jung 1964 yilda shunday deydi; Bu o'zgarishlar inson ruhiy holatlari, hayotiy bosqichlari va taqdiriy burilishlarga hamohang talqin etilgan. Ayniqsa xalq ertaklari va dostonlarida oy vaqtning, ichki o'zgarishlarning, sabr-toqatning timsoli sifatida tasvirlanadi. Oyning arxetipik ramz sifatidagi eng asosiy konnotatsiyalaridan biri ayollik bilan bog'liq. Oy qadimdan onalik, tug'ilish, hayot aylanishi va nasl qoldirish bilan bevosita bog'langan. Ayol organizmining biologik sikli oyning fazalari bilan uyg'unlikda ketishi qadimgi jamiyatlar e'tiboridan chetda qolmagan⁵. Shuning uchun ko'plab qadimiy jamiyatlarda oy xudolari ayol sifatida talqin etilgan. Masalan Rim mifologiyasidagi Diana, Yunon mifologiyasidagi Selene, Hind mifologiyasidagi Chandrama. Bu obrazlar xalq o'g'zaki ijodida arxetipik xotira sifatida saqlanib qolgan⁶.

MUHOKAMA. O'zbek xalq ijodida ham ayol obrazlari ko'pincha oyga qiyoslanadi. Oydek qiz, oy yuzli kelin kabi iboralar xalq tilida keng tarqalgan. Bu oyning estetik va ruhiy timsol sifatida qadrlanganidan dalolat beradi. Oy bu yerda nafaqat tashqi go'zallik, balki ichki iffat, poklik va ayollikning ramzi sifatida namoyon bo'ladi. "Alpomish" dostonining ko'plab o'rinlarida Barchinoy go'zalligi oyga qiyoslanadi: "Oy yuzli Barchinoy, oppoq yuzidan nuri taralib, tunni yoritardi". Bu misolda oy — **go'zallik, nur va poklik** ramzi sifatida berilgan. Barchinoyning

⁴ Eliade, M. (1987). *The Sacred and the Profane: The Nature of Religion*. Harcourt

⁵ Krippner, S., & Combs, A. (2002). *The Mythic Path: Discovering the Guiding Stories of Your Past – Creating a Vision for Your Future*. Quest Books.

⁶ Leeming, D. A. (2005). *The Oxford Companion to World Mythology*. Oxford University Press.

nafaqat tashqi go‘zalligi, balki ichki sadoqati ham oydek “yorug‘” sifatida talqin qilinadi⁷.

“Go‘ro‘g‘li” dostonida Go‘ro‘g‘lining sevgilisi Oybarchin nomining o‘ziyoq oy ramzini anglatadi. “Oybarchin yuzini ko‘rganlar oyni ko‘rgandek lol qolardi”. Bu obraz ayollik, latofat va ma‘naviy go‘zallikni mujassam etadi⁸.

Alisher Navoiy g‘azallarida ham oy timsoli orqali ayol go‘zalligi madh etiladi:

“Ko‘rki oydin, lutfing oftob, husnungdan dunyo ravshan”.

Bu ifoda o‘zida oy — go‘zallik, quyosh — ma‘naviy yuksaklik ma‘nolarini uyg‘unlashtiradi⁹.

Shuningdek, shoira Zulfiya o‘z she‘rlarida oy obrazini ona mehrining poklik va osoyishtalik ramzi sifatida ishlatadi: “Oydek onam yuziga boqib, yuragim tinchlik topadi”. Bu satrda oy — onaning mehribonligi va ruhiy poklik timsolidir¹⁰.

NATIJALAR. Shunday qilib, oy qadimiy e‘tiqodlar, mifologik asoslar va tabiat hodisalari bilan bevosita bog‘langan holda xalq ongida chuqur arxetipik obraz sifatida shakllangan. U insoniyat ruhiyatining chuqur qatlamlariga kirib borgan. Turli ramziy va ruhiy talqinlarda o‘z aksini topgan. Og‘zaki ijod vositasida avloddan avlodga yetkazilgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida o‘zining tasviri va ramzlari. Oy qadimdan xalq og‘zaki ijodining ajralmas bir obraziga aylangan. O‘zbek folklorida u faqat osmon jismi sifatida emas, go‘zallik, sevgining tozaligi, ilohiy qudrat va tabiat sirlarini o‘zida mujassam etuvchi timsol sifatida ham namoyon bo‘ladi. Uning har bir janrda namoyon bo‘lish shakli o‘ziga xos. Xalqning estetik didi, ruhiy holati va tasavvurlari bilan bog‘liq.

a) Lirik janrlarda qo‘shiqlar, termalar, laparlar. Lirik janrlarda oy ayniqsa sevgi va go‘zallikning ramzi sifatida tez-tez tilga olinadi. Bu asosan xalq qo‘shiqlari, laparlar va termalarda uchraydi. Masalan:

⁷ *Alpomish. (1958). Alpomish dostoni. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Nashriyoti.*

⁸ *Go‘ro‘g‘li dostoni. (1961). Xalq variantlari asosida. Toshkent.*

⁹ Navoiy, A. (1983). *G‘azaliyot. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti*

¹⁰ Zulfiya. (1970). *Yurak. Toshkent: Yozuvchi Nashriyoti.*

“Oydek go‘zal qizni ko‘rdim, yuraklarim yondi, o‘rtog‘im...”

“Ko‘kdagi oy misoli, porlaysan yuzing bilan”.

Bu yerda oy tashqi go‘zallik mezonini, sevimli yor obrazining ifodasiga aylanadi. Ayniqsa o‘zbek xalq lirikasi oy metaforasidan ayol yuzining go‘zalligini ifodalashda keng foydalanadi¹¹.

Termalarda oy sevgi, orzu, sadoqatni bildiruvchi estetik belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat o‘zining kechqurun paydo bo‘lib, yorug‘lik tarqatish xususiyati bilan bog‘liq. Uning beg‘uborlik va samimiylik timsoli sifatida talqin qilinishiga olib keladi.

b) Rivoyat va ertaklarda. Rivoyatlar va ertaklarda oy ilohiy nur manbai, samoviy kuch yoki mukofot belgisi sifatida tilga olinadi. Ko‘plab xalq ertaklarida oy osmonning yorituvchisi, adolatning belgisi, ba‘zan qahramonning sodiqligi yoki pokligi evaziga nasib etgan yuksak maqom sifatida ifodalanadi. Masalan: “Yigit o‘z vafosini isbot qilganidan so‘ng, Tangri uni osmonga olib chiqdi, u oyga aylandi”. Bu kabi rivoyatlar oyga sig‘inish, uni ruhiy poklanish yoki komillik belgisi deb bilish qadimiy e‘tiqodlarning folkloridagi aksidir¹². Bunday tasvirlar inson ruhiyatining ilohiy qudrat bilan bog‘lanishga intilishi va o‘zining tabiatda yagona, betakror yorug‘lik manbai bo‘lishi bilan bog‘liq. Ba‘zan oy ertaklarda boshqaruvchi kuch yoki sirli ko‘zgu sifatida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, ba‘zi afsonalarda oy yerdagi ishlarni kuzatuvchi, kechqurun yuraklarda uyg‘ongan his-tuyg‘ularni ko‘ruvchi deb tasvirlanadi. Bu qarashlar o‘zining antropomorfik, ya‘ni insoniy fazilatlar bilan jihozlangan obrazga aylanganidan darak beradi¹³.

c) Topishmoq va maqollarda. Topishmoqlarda oy asosan tabiat hodisasi sifatida talqin qilinadi. Unga nisbatan bergan tasvirlar xalqning tabiatga e‘tibor bilan qaraganini ko‘rsatadi. Oy harakatining muntazamligini

¹¹ Saidov, S. (2004). *O‘zbek xalq ijodi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.*

¹² Eliade, M. (1987). *The Sacred and the Profane: The Nature of Religion. Harcourt.*

¹³ Leeming, D. A. (2005). *The Oxford Companion to World Mythology. Oxford University Press.*

kuzatganini bildiradi. Masalan: “Tunda chiqadi, ertalab yo‘q, osmondan ko‘chadi, barchaga do‘st” (Javobi oy.) Bu kabi topishmoqlar o‘yning barcha uchun birdek muhim va ayni vaqtda sirli jonzotdek qabul qilinganini bildiradi¹⁴.

XULOSA. O‘yning harakatiga doir kuzatuvlar orqali uni ramziy tushunishga urinish mavjud. Maqollar esa o‘yning estetik va ruhiy funksiyasini ifodalaydi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida oy nafaqat osmon jismi, balki inson ruhiy olamining, orzu-muhabbatining timsoli sifatida namoyon bo‘lgan. Lirik janrlarda u sevgi, go‘zallik va orzularni ifodalasa, ertak va rivoyatlarda oy adolat va poklik belgisi bo‘lib ham tasvirlangan. Oy obrazlari xalq ongining chuqur qatlamlarida yashab kelayotgan ruhiy va ramziy merosning yorqin namunalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boyce-Davies C. *Black Women, Writing and Identity: Migrations of the Subject.* – London: Routledge, 1999. – 320 b.
2. Eliade M. *The Sacred and the Profane: The Nature of Religion.* – New York: Harcourt, 1987. –

256 b.

3. Jung C. G. *Man and His Symbols.* – London: Aldus Books, 1964. – 320 b.
4. Krippner S., Combs A. *The Mythic Path: Discovering the Guiding Stories of Your Past – Creating a Vision for Your Future.* – Wheaton (IL): Quest Books, 2002. – 300 b.
5. Leeming D.A. *The Oxford Companion to World Mythology.* – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 480 b.
6. Needham J. *Science and Civilisation in China. T. 2: History of Scientific Thought.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1956. – 696 b.
7. Saidov A. *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.* – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 280 b.
8. Saidov S. *O‘zbek xalq ijodi.* – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 260 b.
9. Turaqulov A. *Xalq og‘zaki ijodi va ramzlar olami.* – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 240 b.
10. Turaqulov O. *O‘zbek xalq estetik tafakkurida ramz va timsollar.* – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 220 b.



¹⁴ Saidov, S. (2004). *O‘zbek xalq ijodi.* Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.